

QOBILIYATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI. MATEMATIK STATISTIK METODLAR ORQALI TADQIQOT NATIJALARINING TAHLILI.

Normuminov Shavkat Erkinovich.

Termiz davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

shavkatnormuminov0@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash maqsadida Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabida olib borilgan "Intellekt tiplari" anketasi (G.Gardner) metodikasi natijalarini zamonaviy kompyuter dasturlari (SPSS) da matematik tahlil natijalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Amaliy psixologiyaning hozirgi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqatlarini ilk yoshligidan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagaostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyat bilan amaliyotda qo'llanmoqda.

Qobiliyatlarni aniqlash (o'lchash) muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun ishlab chiqilgan maxsus testlardan foydalandilar.

Hozirgi taraqqiyot zamonida barcha sohalarda bo'lgani kabi psixologiya sohasida ham olib borilayotgan tadqiqotlarni zamonaviy kompyuter dasturlari orqali matematik-statistik tahlil qilish imkoniyatlari yaratilgan.

Ushbu maqolada Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'quvchilarida o'tkazilgan "Intellekt tiplari" anketasi (G.Gardner) metodikasi natijalarining SPSS dasturida matematik-statistik tahlili natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi.


Ushbu tadqiqotimiz doirasida 16 -17 yoshda bo'lgan jami 104 nafar sinalluvchi ishtirok etishdi.

1. jadval

Jinsi bo'yicha ishtirokchilar soni				
	Chastotasi	Foiz	Validlik foizi	Hisoblangan foizlar
yigitlar	70	67,3	67,3	67,3
qizlar	34	32,7	32,7	100,0
Jami	104	100,0	100,0	

Ushbu jadvalda ko'rinib turganidek tadqiqotimizda 70 nafar yigitlar va 34 nafar qizlar ishtirok etishdi.

1. rasm



1. rasm. "Jinslar bo'yicha ishtirokchilar soni"

Yuqorida berilgan diagrammada tadqiqotimizda ishtirok etgan ishtirokchilarning jinslar bo'yicha soni ko'rsatilgan. Jumladan yigitlar 70 nafarni tashkil etsa, qizlar 34 nafarni tashkil etadi.

Ushbu jadvalda tadqiqot ishtirokchilarining yosh ko'rsatkichlari bo'yicha ststistikalari keltirilgan bo'lib quyidagicha tasvirlash mumkin.


2. jadval

Sinaluvchilarning yosh ko'rsatkichlari.

		Chastotasi	Foiz	Validlik foizi	Hisoblangan foizlar
16,00	Yigitlar	24	32,7	32,7	32,7
	Qizlar	10			
	Jami 16 yosh	34			
17,00	Yigitlar	46	67,3	67,3	100,0
	Qizlar	24			
	Jami 17 yosh	70			
Jami		104	100,0	100,0	

2. rasm

2.



rasm. Ishtirokchilarning yosh ko'rsatkichlari.

Navbatdagi tahlilimiz ishtirokchilarning yoshi bo'yicha bo'lib bunda kichik yosh 16 yosh bo'lsa katta ishtirokchi 17 yoshda ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'rtacha yosh ko'rsatkichi 16,5 yoshni tashkil etdi.


3. jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlari

Yo'nalishlar nomi	Chastotasi	Foiz	Validlik foizi	Hisoblangan foizlar
Xalq cholg'u ijrochiligi	30	28,8	28,8	28,8
An'anaviy vokal artististi	14	13,5	13,5	42,3
An'anaviy cholg'u ijrochiligi	13	12,5	12,5	54,8
Musiqali teatr aktyori	19	18,3	18,3	73,1
Ommaviy bayramlar rejissori	15	14,4	14,4	87,5
Baxshichilik	13	12,5	12,5	100,0
Jami	104	100,0	100,0	

Ushbu jadvalda sinaluvchilarning mutaxassislik yo'nalishlari/ bo'yicha ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, ushbu sinaluvchilar Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabining Xalq cholg'u ijrochiligi, An'anaviy vokal artististi, An'anaviy cholg'u ijrochiligi, Musiqali teatr aktyori, Ommaviy bayramlar rejissori hamda Baxshichilik yo'nalishlarida taxsil oluvchi 104 nafar o'quvchilar hisoblanishadi.

3. rasm



3. rasm. Ishtirokchilarning yosh ko'rsatkichlari.

O'tkazilgan tadqiqot natijalarini Kolmagorov-Smirnov mezoniga muvofiqligini tekshirish natijalari quyidagicha ko'rinish hosil qildi.

“Intellekt tiplari” anketasi (G.Gardner) metodikasi natijalari mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha Kruskal-Uollis mezonida taxlil qilganimizda natijalar quyidagi ko'rinishda bo'ldi.

4. jadval


“Intellekt tiplari” anketasi (G.Gardner).

Ранги				Хи-квadrat	Ishonch darajasi
	Mutaxassislik yo'nalishlari	N	Средний ранг		
Verbal yoki lingvistik	Xalq cholg'u ijrochiligi	30	45,00	13,463	,019
	An'anaviy vokal artististi	14	46,79		
	An'anaviy cholg'u ijrochiligi	13	44,42		
	Musiqali teatr aktyori	19	53,26		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	72,93		
	Baxshichilik	13	59,35		
	Bcero	104			
Matematik yoki mantiqiy	Xalq cholg'u ijrochiligi	30	45,88	5,040	,411
	An'anaviy vokal artististi	14	48,61		
	An'anaviy cholg'u ijrochiligi	13	55,46		
	Musiqali teatr aktyori	19	56,89		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	62,87		
	Baxshichilik	13	50,62		
	Bcero	104			
Vizual yoki fazoviy	Xalq cholg'u ijrochiligi	30	48,38	16,197	,006
	An'anaviy vokal artististi	14	46,54		
	An'anaviy cholg'u ijrochiligi	13	45,35		
	Musiqali teatr aktyori	19	51,03		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	53,40		

	Baxshichilik	13	76,69		
	Bcero	104			
Musiqiy	Xalq cholg`u ijrochiligi	30	67,03	32,495	,000
	An`anaviy vokal artististi	14	63,25		
	An`anaviy cholg`u ijrochiligi	13	70,54		
	Musiqali teatr aktyori	19	39,05		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	31,03		
	Baxshichilik	13	33,77		
	Bcero	104			
Emotsional yoki shaxslararo	Xalq cholg`u ijrochiligi	30	40,52	18,114	,003
	An`anaviy vokal artististi	14	58,57		
	An`anaviy cholg`u ijrochiligi	13	66,92		
	Musiqali teatr aktyori	19	62,58		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	41,87		
	Baxshichilik	13	56,73		
	Bcero	104			
Ekzistensial yoki ma`naviy	Xalq cholg`u ijrochiligi	30	41,70	9,621	,087
	An`anaviy vokal artististi	14	49,93		
	An`anaviy cholg`u ijrochiligi	13	53,35		
	Musiqali teatr aktyori	19	61,24		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	61,23		
	Baxshichilik	13	56,50		
	Bcero	104			
Tana-kinestetik	Xalq cholg`u ijrochiligi	30	32,10	43,415	,000
	An`anaviy vokal artististi	14	41,64		
	An`anaviy cholg`u ijrochiligi	13	39,19		
	Musiqali teatr aktyori	19	66,95		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	76,77		
	Baxshichilik	13	75,46		
	Bcero	104			


Izoh: $p \leq 0,001$ (99,9 %), $p \leq 0,01$ (99 %), $p \leq 0,05$ (95 %)

Verbal yoki lingvistik intellekt shkalasi ($H=13,463 \leq 0,01$). Eng yuqori qiymat Ommaviy bayramlar rejissori (72,93), eng kichik qiymat An`anaviy cholg`u ijrochiligi yo`nalishida (44,42) namoyon bo`ldi. yozuvchilar, jurnalistlar, notiqalarda rivojlangan. Uni bo`lishi siyosatchilar va umuman boshqalar bilan muloqot qiluvchi, ko`pchilik oldida chiqishlar qiluvchilar uchun ham xalaqit bermaydi. Bu og`zaki va yozma nutqli, til tuyg`ularidan xabardor, yaxshi jumlar tuza oladigan va o`z fikrlarini mohirona ifodalay oladi. Bugungi ta`lim tizimi ushbu intellekt tipini rivojlanishiga e`tibor qaratadi: maktabda o`qishni, yozishni, o`qiganlarni so`zlab berish o`rganiladi.



4. rasm “Verbal yoki lingvistik intellekt” shkalasi.


Vizual-fazoviy intellekt olamni vizual idrok etuvchi va bu axborotlarni tahlil qiluvchi, rangga, shaklga, chiziqlarga, fazodagi oby'ektlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirchan bo'ladi. Bu qobiliyatli bolalar geometriya va chizmachilikni yaxshi o'zlashtiradilar. Ushbu intellekt tipi arxitektorlar, rassomlar, dizaynerlar uchun xosdir. Bunday insonlar joyni yaxshi mo'ljallay oladilar, ular yaxshi ekskursovod yoki yo'l boshlovchi bo'ladilar. Ushbu shkala bo'yicha ($H = 16,197 \leq 0,05$) ishonchli tafovut aniqlandi. Eng yuqori qiymat Baxshichilik yo'nalishida (76,69) eng kichik qiymat An'anaviy cholg'u ijrochiligi yo'nalishida (45,35) ni tashkil etdi.



5. rasm “Vizual-fazoviy intellekt” deb nomlangan rasm.


Musiqiy intellekt shkalasi ($H=32,495 \leq 0,001$) ishonchli farqlarni kuzatdik. Ushbu shkala bo'yich musiqa yozish va baholash, idrok etish qobiliyati, yaxshi musiqiy tovushlar farqlash, ritm va uyg'unlik tuyg'usiga egaligini. Shubhasiz siz musiqiy intellekt egalari yaxshi ijrochilar, bastakorlar, ovoz rejissyorlari va musiqa tanqidchilari bo'lib kamol topishlari mumkin. Eng yuqori qiymat An'anaviy cholg'u ijrochiligi yo'nalishida (70,54) ni tashkil etgan bo'lsa mos ravishda Xalq cholg'u ijrochiligi yo'nalishida (67,03) natijani ko'rishimiz mumkin. Eng kichik qiymat esa Ommaviy bayramlar rejissori yo'nalishida (31,03).

6. rasm



6. rasm "Musiqiy intellekt" shkalasi.


Emotsional yoki shaxslararo intellekt shkalasi ($H=18,114 \leq 0,001$) ishonchli farqlarni kuzatdik. Eng yuqori qiymat Ommaviy bayramlar rejissori (66,92) eng kichik qoymat esa Xalq cholg'u ijrochiligi (40,52) yo'lishida namoyon bo'ldi. Ushbu shkala muloqot san'ati bilan bohliqdir. Bu o'zga insonlarning tuyg'ulari va niyatlarini, kayfiyatini farqlash uquvidir. U muloqot bilan bog'liq faoliyat egalarining hammasidan talab etiladi. Aynan Ommaviy bayramlar rejissori mutaxassisligi faoliyat jarayonida turli obrazlarni gavdalantiruvchi aktyorlar jamoasi bilan munosabatga kirishuvi, obrazlarning ichki dunyosini ochib berishi zarurligi Emotsional yoki shaxslararo intellektni rivojlanganligini taqozo etadi.



7. rasm "Emotsional yoki shaxslararo intellekt" shkalasi

Ekzistensial yoki ma'naviy intellekt ($H=9,621 \leq 0,01$) yuqori bo'lmagan ishonchli farqlarni kuzatdik. Ekzistensial yoki ma'naviy intellekt- ushbu inomga ega bo'lganlar borliq, hayot va o'lim haqidagi masalalarni muhokama qilishdan qo'rqmaydilar. Ko'pgina yozuvchilarda o'am ushbu tip kuzatiladi. U go'yoki foydasizdek ko'rinsa-da, bu iste'dod insonlarga chuqur fikrlash va his etish taqdim etadi, atroflicha fikrlashga o'rgatadi. Bu ularni hayotning barcha sohalarida amaliy ahamiyatli, mulohazalovchi insonlar va qiziqarli suhbatdoshni kamol topishiga olib keladi. Eng yuqori qiymat Musiqali teatr aktyori (61,24), Ommaviy bayramlar rejissori (61,23), eng kichik qiymat xalq cholg'u ijrochiligi mutaxassisligi o'quvchilarida (41,70) kuzatildi.


8. rasm



8. rasm "Ekzistensial yoki ma'naviy intellekt" shkalasi.

Tana-kinestetik intellekt zamonaviy maktabda kam mashqlantiriladi. Aynan, kinestetik qobiliyatli bolalar sportchilar, balerinalar, aktyorlar va aktrisalalar bo'lib etishadilar. Ushbu shkala bo'yicha olingan natijalar ($H=43,415 \leq 0,001$) ishonchli farqlarni tashkil etdi.

9. rasm



9. rasm "Tana-kinestetik intellekt" shkalasi.

Xulosalar.

Tadqiqot ishimizda tanlangan metodikalar orqali olingan ma'lumotlarni matematik statistik usullar bilan qayta ishlaganimizda kelib chiqqan tafovutlarni jadvallar va rasmlarda keltirib o'tdik. Ushbu ma'lumotlar asosida eng yuqori qiymat Ommaviy bayramlar rejissori (76,77), Baxshichilik (75,46), Musiqali teatr aktyori (66,95). Ta'lim jarayonida ushbu mutaxassislik o'quvchilarida aktyorlik mahorati, raqs ijro etish qobiliyati yuqori rivojlanganligi namoyon bo'ldi. Kasb yo'nalishlari ham ushbu qobiliyatlarni rivojlanishini taqozo etadi, tahlil natijalari ham bu narsani isbotladi.

Mazkur muammoni o'quvchilarning kasbga yo'naltirish va kasb tanlash faoliyati bilan bog'liq o'rganish zaruratini tahlil etishga to'g'ri kelsa, u holda Govard Gardner tomonidan ilgari surilgan g'oyaga tayanish muhimdir. G.Gardner intellekt orqali insonlarning, xususan o'quvchilarni qanday faoliyat turlariga layoqatli ekanliklarini va qanday kasb tanlashga yordam berishi mumkinligini izohlashga erishgan. U tomonidan ishlab chiqilgan "Intellekt tipi" anketasi intellekt bilan insonning kasbiy faoliyatga layoqatliligini, moyilligini aniqlash imkonini beradi. G.Gardner o'zining intellektga bag'ishlangan g'oyasidan inson intellektiga ko'ra ettita tip xosligini tasniflagan: lingivistik, matematik-mantiqiy, vizual-fazoviy, musiqiy, shaxslararo, shaxsning ichki olamini tushunuvchi, kinestitek. Umumta'lim maktablarida, kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilar bilan o'qituvchilarning o'zaro samarali faoliyatni ta'minlashida olim tomonidan ilgari surilgan intellekt tiplariga mansublikni inoabtga olish muhimdir. Ko'p hollarda o'quvchilarning intellekt tiplariga mansubligini payqamaslik yoki bunga doir pedagogik-psixologik axborotga ega emaslik o'qituvchilarning ta'lim berish jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida esa bu boradagi masalalarni hal etishda o'qituvchiga ta'lim muassasasi amaliyotchi psixologik ko'makchi hisoblandi. Quyida aynan amaliyotchi psixolog va o'qituvchilarning G.Gardner tomonidan ishlab chiqilgan "Intellet tiplari" anketasi bilan tanishtirish orqali ularga psixologik uslubiy yordam ko'rsatish imkoniga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. Majidova SH.A., Kasbiy psixologiya. O'UM.2-qism. Toshkent. 2012 yil
2. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Abdiev S., SH.To'laganova., Psixodiagnostika - T.: 2008. - 331 b.
3. [Ta'lim va kognitiv faoliyatda talabanning ijodiy faolligi rivojlanish](#) III Эркинович О'zMU XABARLARI, 182-185

4. [KOGNITIV FAOLIYA-TALABALARNING TA'LIMDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA](#) НШ Эркинович TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMİY AXBOROTLARI, 134-140

3. [ТЕОРИИ РАЗВИТИЯ ТАЛАНТА И СПЕЦИАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ПСИХОЛОГИИ](#). ШЭ Нормуминов Academic research in educational sciences 3 (4), 246-253

4. [KOGNITIV FAOLIYA-TALABALARNING TA'LIMDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA](#) НШ Эркинович TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMİY AXBOROTLARI, 134-140

3. [Ta'lim va kognitiv faoliyatda talabanning ijodiy faolligi rivojlanish](#) НШ Эркинович О'ZMU XABARLARI, 182-185

